

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI MASALALARI ALISHER NAVOIY VA UBAYD ZOKONIY

Shavkat HAYITOV,

filologiya fanlari doktori,

BuxDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori

shavkat61hayitov@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20676962>

Annotatsiya. *Filologiya fanlari doktori, professor Abduqodir Hayitmetov tadqiqotlarida hazrat Alisher Navoiyning keng ko‘lamli merosi boy adabiy va ilmiy an‘analar zaminida yuzaga kelganligi teran tahlil qilingan. Maqolada ustoz olimning nazariy qarashlariga tayangan holda ulug‘ o‘zbek mutafakkirining ilk o‘rta asr fors-tojik adabiyotining iste‘dodli namoyandasi Ubayd Zokoniya adabiy an‘analaridan foydalanishdagi mahorati haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Mahbubul-qulub”, Ubayd Zokoniya, “Dah fasl”, adabiy ta‘sir, uslub, ijtimoiy toifa.*

Аннотация. *В исследованиях доктора филологических наук, профессора Абдукадира Хайитметова глубоко проанализировано, что обширное наследие Алишера Навои сформировалось на основе богатых литературных и научных традиций. В статье, опираясь на теоретические взгляды учёного, рассматривается мастерство великого узбекского мыслителя в использовании литературных традиций талантливого представителя раннесредневековой персо-таджикской литературы Убайда Законаи.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, «Махбуб ул-кулуб», Убайд Законаи, «Дах фасл», литературное влияние, стиль, социальный слой.*

Annotation. *The research of Doctor of Philology, Professor Abdukodir Hayitmetov deeply analyzes the fact that the extensive legacy of Hazrat Alisher Navoi arose on the basis of rich literary and scientific traditions. The article, based on the theoretical views of the master scholar, reflects on the skill of the great Uzbek thinker in using the literary traditions of Ubayd Zokoni, a talented representative of early medieval Persian-Tajik literature.*

Key words: *Alisher Navoi, “Mahbubul-qulub”, Ubayd Zakoni, “Dah fasl”, literary influence, style, social category.*

Alisher Navoiy “Mahbubul-qulub” asarining adabiy sarchashmalaridan biri Ubayd Zokoniya “Ta‘rifot” risolasi bo‘lib, “Dah fasl” nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu asarning Alisher Navoiy pandnomasiga o‘tkazgan ta‘siriga birinchi bo‘lib professor A. Hayitmetov ilm ahlining e‘tiborini tortgan edi: “Ilk o‘rta asr fors-tojik satirasida shoir Ubayd Zokoniya (1270-1370) alohida ajralib turadi. Uning o‘n fasldan iborat “Risolai ta‘rifot” asari hozirgacha g‘oyatda mashhurdir... Ubayd Zokoniya risolasidagi o‘tkir satira va kinoyalar undan keyingi progressiv san‘atkorlarning ijodiga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi. Masalan, Alisher Navoiy “Mahbubul-qulub” asarini yaratishda Ubayd Zokoniya bu lug‘atnoma risolasidagi o‘tkir



satirik san'at, o'tkir kinoya uslubidan ham qattiq ta'sirlangan... Zokoniyy o'z asarida har bir ijtimoiy guruh xarakteristikasini bir-ikki so'zda bergan bo'lsa, Navoiy ularga keng va mumkin qadar tugal xarakteristika berib, ularning astar-paxtasini ag'darib tashlashga harakat qiladi" [Hayitmetov, 1963:138-140]. Bosqinchilik harbiy yurishlaridagi sarbozlar tasviri "Dah fasl"da quyidagicha berilgan: "Al-ya'chuchu val-ma'chuch ..., ki ba viloyate mutavachcheh shavand" [Zokoniyy, 1963:98]. Ya'juj va Ma'juj xaylining "Yer yuzida buzg'unchilik qiluvchi" guruh ekanligi "Qur'on"ning 18-surasida (94-oyat) zikr qilingan. Ya'juj va Ma'juj ofatiga adolatli shoh-Zul-qarnayn to'siq qo'yadi. Ko'rinadiki, Ubayd Zokoniyy ilohiy kitobdan samarali oziqlanib, g'oratchi ijtimoiy toifaning qisqa va aniq ta'rifini beradi. Alisher Navoiy "Mahbubul-qulubning" "Yasdog'lik va qora cherik" zikridagi to'qqizinchi faslida adolatsiz harbiy yurishlardagi hukumat askarlarining buzg'unchilik va talovchilik xususiyatlarini fosh etishda Ubayd Zokoniyy ijodiy tajribasidan foydalangan: "Yasog'lik degan qora cherik, ya'juj va ma'juj xaylig'a sherik" [Navoiy, 1948:18].

Biroq mazmunning ko'lamdorligi, toifa tavsifining umuminsoniy, ijtimoiy masalalar mezoni bilan o'lchanishi va hal qilinishiga ko'ra 9-fasl Ubayd Zokoniyy talqinidan tubdan farq qiladi va xalqchil mohiyat kasb etadi. Ulug' adib "Chigirtkalar ekin yer, ekmay-tikmay tekin yer" maqoli mazmunini satrlari mag'ziga singdirib, tasvirning xalqchilik ruhini yanada oshirgan. Bosqinchi harbiy toifaning zararkunandaligi, tekinxo'rliqi, el boshiga bitgan ofat ekanligini tabiiy ochgan: "Ishlari talay olg'onni talamoq, yot mulkida cho'gurtkadek sabza va yafrog'ni yalamoq" [Navoiy, 1948:19]. Ijtimoiy foydali faoliyatdan yiroq bo'lgan bu toifaning ma'naviy tanazzuli 9-faslning quyidagi satrlarida yorqin aks etgan: "Fahmu idrokdin alar zoti oriy, aqlu insofsiz bizzot bori... Issig'-sovuq tanlarig'a tafovut qilmay, ochlig'-yalang'ochlik zararini jismlari bilmay" [Navoiy, 1948:19].

Ubayd Zokoniyy asarining uchinchi faslida Qozi, unga aloqador kishilar va taalluqli narsalar haqida fikr yuritiladi. "Dah fasl"dan o'qiymiz: "Al-qozi-on ki hamma o'ro nafrin kunand;... Noib-ul-qozi-on ki imon nadorand;... As'hob-ul-qozi-jamoate, ki guvohi ba salaf furo'shand;... Chashmi qozi-zarfe, ki ba hech (chiz) pur nashavad;... Al-rishvat-korsozi bechoragon; al-sayd-on ki hargiz ro'i qozi nabinad"... [Zakoniyy, 1963:100]. Alisher Navoiy "Mahbubul-qulub"ning "Kuzot zikrida"gi 12-faslida qozilar to'g'risida qalam suradi. "Risolai ta'rifot"ning barcha qismlaridagi kabi uchunchi faslida ham tasvirda kinoya uslubi yetakchilik qilib, asosiy e'tibor qozining salbiy xususiyatlarini fosh etishga qaratilgan. "Mahbubul-qulub"ning 12-faslida esa muallifning insonparvarlik tamoyillari, dunyoqarashi, davlat va ma'naviyat arbobi sifatidagi boy hayotiy tajribasi, XV asr mafkurasi va tarixiy sharoiti mantiqidan kelib



chiqib qozi timsoli yaratilgan: “Qozi islom binosig‘a arkondur va musulmonlar xayr va sharrig‘a nofizi farmondur” [Navoiy, 1948:21]. Alisher Navoiy nazdida adolatli qonunga rioya qilingandagina xalq jips, davlat mustahkam bo‘ladi. Xalq birlig‘i, davlat buzilmasligining asosi-qonun, qonun binosining tayanchi – qozi. Chunki elning yaxshi va yomon ishlari ustidan hukm chiqarish qozining zimmasida. Shunday ekan, qozining qalbi qonun (shariati islomiya) ilmi bilan to‘la bo‘lishi barobarida, u dunyoviy ilmlardan ham puxta xabardor bo‘lmog‘i zarur: “Diniy ulumdin ko‘ngli mulki ma‘mur kerak va yaqiniy farosatdin xotiri jami’yati befutur” [Navoiy, 1948:21]. Qozi o‘z g‘arazini ko‘zlash, ikkiyuzlamachilik, shariy hiylalar to‘qish illatlaridan xoli bo‘lishi; poraxo‘r muftilar uning oldida xor, makkor huquqshunoslar uning qoshida aybdor sanalmog‘i darkor. U hukm vaqtida xolis bo‘lmog‘i, oshna-og‘aynigarchilikka yo‘l qo‘ymasligi, o‘z vazifasini suyiste‘mol qilmasligi zarur: “...hukm qilurida oshnoyu begona anga alas-saviya” [Navoiy, 1948:22]. Agar qozi pora berib, qozilik lavozimiga erishgan bo‘lsa, pora olib qonunni buzishi tayin: “Ulki rishva berib qazo ola olg‘ay, rishva olib ham shar‘ni buza olg‘ay” [Navoiy, 1948:22].

Qariyb besh yuz yil muqaddam aytilgan bu fikrlar xuddi bugun aytilayotganday muhim ijtimoiy, ma‘naviy, axloqiy qimmatga ega. Ulug‘ adib “jodai shar”ni to‘g‘ri yo‘lga to‘g‘ri chiziqqa, musiqa asbobining toriga qiyos qiladi va qozi qonun yo‘lidan zarracha tashqari chiqmaligi kerak, deya uqtiradi. Chunki qozining qarori xalq moli va joniga daxldor. Alisher Navoiy e‘tiqodiga ko‘ra xalq ustidan chiqariladigan hukm hamisha to‘g‘ri va adolatli bo‘lmog‘i zarur: “Ulki hukmi el moli va jonig‘a joriy bo‘lg‘ay, kerakkim dab‘i maqmar shiori bo‘lg‘ay” [Navoiy, 1948:22]. Qozining oyog‘i rostlik, halollik ko‘prigidan toyar ekan, uning joyi do‘zax tubida bo‘ladi. Adibning qonunbuzar qozi ustidan chiqargan xulosasi nihoyatda keskin: “Bu ishni o‘zi qilurman degan beboku kozib va beboku kozib payg‘ambar shar‘i hokimlig‘ig‘a munosib” [Navoiy, 1948:22]. Xullas, Alisher Navoiy aniq tarixiy voqelik doirasida qozining mukammal tomsolini yaratadi.

Ubayd Zokoniylar hajv ustasi, haqgo‘y va topqir, favqulodda jasoratli ijodkor ekanligi haqidagi Alisher Navoiy muhabbatini qozongan dalillar olim va adib Faxriddin Ali Safiy asarlarida ham uchraydi [Safiy, 1986:66-67].

Faxriddin Ali “Latoyif ut-tavoyif” kitobida Mavlono Irshod Voiz, Voiz Hotam Asam, Voiz Qozi O‘shiy haqida maroqli hikoyatlar keltiradi. Olimning “Anis-ul orifin fil-mavoiz” asari notiqlik san‘ati asoslarini yoritishga bag‘ishlangan. Voizlik san‘atining sharqda mashhur namoyandalari haqidagi qimmatli ma‘lumotlar Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” tazkirasida ham mavjud.



“Mahbubul-qulub”da esa xalq manfaatidan kelib chiqib, voizlik kasbining mohiyati, jamiyat ma’naviy-ma’rifiy hayotida tutgan o‘rni va darajasi mufassal yoritiladi. Voizlar tavsifi Ubayd Zokoniyy e’tiboridan ham chetda qolmagan. Uningcha voiz o‘zi aytib amal qilmaydigan kishi: “Al voiz – onki bi go‘yadu nakunad” [Zakoniyy, 1963:100]. Ko‘rinadiki, ushbu kasb tasvirida ham “Dah fasl” muallifi lug‘at usuli talabi va o‘z tasvirlash san’ati tabiatiga muvofiq toifa axloqining eng nozik jihatini topib, kinoyaviy izohlash bilan cheklanadi. “Mahbubul-qulub”da Ubayd Zokoniyy urg‘u bergan voiz ma’naviy-axloqiy qiyofasidagi noqislikning fojeiy oqibati, ulus ruhiy hayotiga zararli ta’siri quyidagicha badiiy asoslangan tarzda keladi: “Ulkim, buyurib o‘zi qilmag‘ay va hech kishiga asar va foyda so‘zi qilmag‘ay” [Navoiy, 1856:19 a]. Amalsiz voiz xalq ma’naviyatini boyitilmagani, elga nafi tegmagani holda, muqarrar ravishda o‘z mehnati, butun sa’yu harakatlarini ham yelga sovuradi. Zero, Alisher Navoiyning insonparvarlik tamoyillariga ko‘ra jamiyatda mavjud har qanday ijtimoiy toifa inson va uning manfaatlariga xizmat qilishi zarur. Har bir kasbning o‘z odobi bor. Toifa axloqiga amal qilmagan kasb sohibi ijtimoiy axloq me’yorlarini ham buzgan hisoblanadi va asarda adibning qattiq tanqidiga uchraydi. “Nasihat ahli voizlar zikrida”gi 24-faslda voizlik kasbi oldiga qo‘yiladigan asosiy talablar birma-bir raqam qilinadi. Alisher Navoiy faslning dastlabki jumlasida voiz o‘z nutqini qaysi manbalar asosida qurishi kerakligini aytadi: “Voiz kerakki, “qolalloh”din aytsa va “qola rasululloh” muxolafatidin qaytsa” [Navoiy,1948:38]. Adabiyotshunos olim A.Habibullayev o‘rinli ta’kid etganidek, “Navoiy qo‘llagan tasvir vositalari (Qur’on va Hadislar – Sh.H.) uning mazkur manbalarga yuksak hurmatini ifodalash bilan bir qatorda ularning badiiy ijodda tutgan o‘rnining e’tirofi hamdir” [Habibullayev, 1993:163]. Ulug‘ adibning uqtirishicha, elni halollik va to‘g‘rilikka da’vat etuvchi voiz zimmasida yana quyidagi shartlar turadi. Avvalo, voizning o‘zi Xudo va Muhammad Mustafo yo‘liga kirishi va undan so‘ng xalqni nasihat bilan bu yo‘lga chorlashi lozim. Adib o‘zi kirmagan ezgulik yo‘liga elni boshlamoqchi bo‘lgan voizni musofirni yo‘ldan adashtirib, sahroda yo‘qotgan yo‘lchiga, odamlarni hushyorlikka da’vat etuvchi mastga, kishilarga bedorlikdan saboq beruvchi uyquchiga qiyos etar ekan, yozadi: “Uyqusida so‘z degon jevligon bo‘lur, ul degondek qilg‘on ne degon bo‘lur?” [Navoiy,1948:39]. Alisher Navoiy fikricha, va’z aytish ko‘nglida ilohiy nur porlab turgan, ruhan uyg‘oq orif insonning kasbidir: “Va’z bir murshidi ogoh ishidur va bir komile ahli Olloh varzishidur” [Navoiy,1948:39].

Xullas, Ubayd Zokoniyy ifodida ijtimoiy ahvoliga ko‘ra axloqiy-ma’naviy qiyofasining eng muhim bir qirrasini hajviy-kinoyaviy usulda aks ettirilgan o‘nlab toifalarning mufassal hayotiy talqinini “Mahbubul-qulub”dan topish mumkin.

Fikrimizcha, “Ta’rifot” risolasidagi ayrim fasllarning tuzilishi bilan “Mahbubul-qulub”dagi ba’zi fasllar badiiy qurilmasida ham mushtaraklik nazarga tashlanadi. Jumladan, Ubayd Zokoniylar risolasining o‘ninchil faslida “Erkak va ayollarning munosabatlari to‘g‘risida” bahs yuritiladi. “Dah fasl” muallifi ayollarni uch toifaga ajratadi: 1. Al-xotun. 2. Al kadbonu. 3. Al-mastur [Zakoniylar, 1963:103]. Xuddi shunga monand tasnif “Mahbubul-qulub”ning “Kadxudolik sifati va xotunlar zikrida”gi 37-faslida ham mavjud. Ubayd Zokoniylar uylanish va u bilan bog‘liq holatlar talqiniga o‘z risolasining to‘qizinchi faslini bag‘ishlaydi va bunda ham o‘z tasvir uslubiga sodiq qolib, asosan hodisaning manfiy qutblarini qalamga oladi: “Qashshoq – uylangan kishi..., behuda, besamar o‘tgan umr bu – kadxudoning hayoti, zoye’ ketgan – uning xotiri, achchiq – uning ayshi, motamsaro – uning uyi, kadxudolik – kechasi yoqimsiz hid, kunduzi yoqimsiz yuz” [Zakoniylar, 1963:103]. Alisher Navoiylar 37-faslning debochasida o‘z g‘oyaviy maqsadiga mos holda ushbu o‘tkir kinoyaviy uslubdan ustalik bilan foydalangan.

“Mahbubul-qulub”ning “Kadxudolik sifati va xotinlar zikrida”gi 37-fasli talqin ko‘lamdorligi va badiiy qurilma (kompozitsiya) mukammalligiga ko‘ra bir qator o‘ziga xos fazilatlarga egaki, bu xususda biz keyingi tadqiqotlarimizda mufassal fikr yuritmoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zokoniylar, Ubayd. Kulliyoti muntahab. –Dushanbe: Nashriyoti Davlati Tojikiston, 1963. - 283 sah.
2. علي شير النوائي. محبوب القلوب. Бухоро санъат музейи хазинасидаги 27780-рақамли қўлёзма. – 121 в.
3. علي شير النوائي. محبوب القلوب.
4. Сводный текст. – М. – Л. Изд. АН СССР. 1948. – 174 стр.
5. Safiylar, Faxriddin Ali. Latofatnoma. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986. -192 b.
6. Habibullayev A. Navoiylar didaktik qarashlarining manbalariga doir. // Alisher Navoiylar adabiy mahorati masalalari. – Toshkent: Fan,1993. – B.164-170
7. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – Toshkent: Fan,1963. – 330 b.